



“QOTRUN NADO VA BALLUS-SADO” ASARINING MUALLIFI JAMOLIDDIN IBN HISHOM AL-ANSORIY ROHMATULLOHI ALAYH VA UNING ASARLARINING O`RGANILISHI

Turg`Unboyev Nuriddinjon Muhammadjon O`G`Li

Tel: +998900000163, E-Mail: Nuriddinmuhammadjon7@Gmail.Com

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti

1-Kurs Magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8374978>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-September 2023 yil

Ma`qullandi: 23-September 2023 yil

Nashr qilindi: 25-September 2023 yil

KEY WORDS

nahv, sarf, “Alg`oz”, “Shuzuruz zahab”, “Burda”.

ABSTRACT

Ushbu maqolada arab tili grammatikasiga ulkan hissa qo`shgan, ushbu sohada o`zining boshqalarda uchramaydigan qarashlariga ega bo`lgan misrlik olim Jamoliddin ibn Hishom va uning asarlarining o`rganilishi, ularga yozilgan sharh va hoshiyalar, ularning chop etilishi haqida ma`lumotlar mavjud. Muallif va uning asarlari haqida ulamolarning munosabatlari yoritilgan.

Arab tili grammatikasi imomlaridan Imom Abu Muhammad Abdulloh Jamoliddin ibn Yusuf ibn Ahmad ibn Abdulloh ibn Hishom al-Ansoriy Misriy hijriy 708-yili zul-qa`da oyida, (milodiy 1309-yil) Qohira shahrida tavallud topgan. Yoshligidanoq u yerda ilm va olimlarga muhabbat qo`yib katta bo`lgan. Ularning juda ko`plaridan ilm o`rgangan. Ba`zi adib va fozillardan ham dars olgan.

“Durarul kamina”¹ asari muallifi ibn Hishomni o`z asrining eng yaxshi kishilari, o`sha davrning eng mashhur olimlaridan ilm o`rganganini va ularga shogird bo`lganini ta`kidlaydi. Ibn Siroj², Abu Hayyon³, Toj Tabriziy⁴, Toj Fokihoniy⁵, Shihob ibn Murahhal⁶, ibn Jamoa⁷lar shular jumlasidandir.

Ibn Hishom taqvodor olim va mazhabda shofeyy bo`lganlar. Umrlarining oxirida hanbaliy mazhabini tutganlari manbaalarda zikr qilingan. Ibn Hishom dini, iffati, chiroyli siyrati, ilm talabidagi sabri bilan birga, kamtarligi, yaxshiliksevar ekani, shafqatli, chiroyli xulqli va yumshoq qalbli ekani bilan ajralib turadi⁸.

Ibn Hishom arab tili, ayniqsa, nahvda mutaxassis edi. Bu borada unda istedad, qobiliyat mavjud bo`lgan. Shu sabab, o`z asrining olimlari va ustozlaridan ham o`zib ketgan. Uning,

¹ Ibn Hajar. “Durarul kamina”. Haydarobod, 1348 h. B. 2:308-310

² Ibn Siroj: Muhammad ibn Ahmad Abu Abdulloh as-Siroj Damashqiy. Nahviy olim. 668-hijriy sanada tavallud topgan va 743-hijriyda vafot etgan.

³ Abu Hayyon: Muhammad ibn Yusuf, Asiruddun G`ornatiy. O`z asrining nahv, lug`at, hadis va adabiyot fanlari olimi. Tafsirga oid “Bahrul muhit” asari mashhur. Hijriy 745-sanada vafot efgan.

⁴ Toj Tabriziy: Ali ibn Abdulloh Ardbiyliy Tabriziy. Bir necha ilmlarni puxta egallagan taqvodor olim. Hijriy 746-sanada vafot etgan.

⁵ Toj Fokihoniy: Umar ibn Ali ibn Solim ibn Sidqa Laxmiy Iskandariy. Nahvga oid “Sharhul umda”, al-Isharo” va boshqa bir qancha kitoblari bor. 731-hijriy sanada vafot etganlar.

⁶ Shihob ibn Murahhal: Abdullatif ibn Abdulaziz.

⁷ Ibn Jamoa: Badriddin Muhammad. Hijriy 733-sanada vafot etgan.

⁸ «Bug`yatul vuot”. B. 2/69.

ayniqsa, ikki kitobi ko'pchilikda katta qiziqish uyg'otdi: "Mug'niy al-labib an kutubil a'ariyb", hamda "Avdohul masalik ila Alfiyati ibn Malik".

Ibn Hishomning shon-shuhrati faqat Misrning o'zida emas, balki butun dunyoda mashhur bo'ldi. Olim va yozuvchilar u haqida: "U hayotlik vaqtidayoq mashhur bo'ldi va xalq uni chiroyli qabul qildi"⁹, deb ta'kidlaganlar. "Durarul kamina" sohibi ibn Xoldundan naql qilib aytadiki: "Biz Mag'ribda turib eshittikki, Misrda bir arab olim paydo bo'libdi, uni Ibn Hishom der ekanlar. Nahvda Sibavayhdan ham bilimlroq ekan". U kishi bir emas, bir nechta ilmlarni puxta egallagan. Uning fatonat va zakovati, ziyrakligi, ayniqsa, yodlab olish qobiliyati juda kuchli bo'lgan. Hattoki, vafotlaridan besh yil avval, "Muxtasarul Xarqiy" kitobini to'rt oydan kam muddatda yodlab olganlari zikr qilingan.

U kishiga mansub quyidagi kitoblar o'rganib chiqilgan:

1. "Al-e'rob a'n qovaidil e'rob". Astana va Misrda nashr etilgan. Shayx Xolid al-Azhariy ushbu kitobga sharh yozgan. Hamda, Alouddin Atiyya tomonidan tahqiq qilingan nashri ham Damashqda chop etilgan.

2. "Alg'oz". U nahviy masalalarga bag'ishlangan kitob bo'lib, uni Sulton Komil Muhammad ibn Odil uchun tasnif qilgan. Ushbu kitob Mirsda nashr etilgan.

3. "Avdohul masalik ila Alfiyati ibn Malik". Kitobning nomidan ham ko'rinib turibdiki, u Imom ibn Molikning "Alfiyatun nahv" asariga yozilgan sharhdir.

4. "Shuzuruz zahab fi ma'rifati kalamil arab". Ushbu kitob nahv ilmi borasidagi muxtasar (matn) kitobdir. Ibn Hishom bu kitobni muqaddima va turli fasllarni o'z ichiga oladigan o'n to'rtta bob qilib tasnif etgan. Ushbu kitobga ko'plab sharhlar yozilgan bo'lib, bizgacha ulardan o'ntasi yetib kelgan. Unga yozilgan hoshiyalardan esa to'qqiztasi ma'lum.

5. "Sharhi shuzuruz zahab fi ma'rifati kalamil arab". Ushbu kitob muallifning o'zi yozgan "Shuruzuz zahab" kitobiga qilgan o'zining sharhi. Kitob nahviy masala va hukmlarni, nahv olimlarining so'zlarini, misollar va dalillarni o'z ichiga oladi. Unda muallif nahviy masalalarni "Qotrun nada va ballus soda" kitobiga o'xshash suratda keltirgan. Ushbu kitob ham bir necha bor chop etilgan bo'lib, ulardan eng mashhur nusxasi Muhammad Muhiyyiddin Abdulhamid tahqiqi bilan chop etilganidir.

6. "at-Tazkira". Imom Suyutiy ushbu kitobni o'n besh juzdan iborat ekanini aytgan. Shayx Yosin Aliymiy o'zining ko'plab nahv kitoblariga yozgan hoshiyalarida ushbu kitobdan iqtiboslar keltirgan. Shihob Xofajiy ham o'zining "Nasiymur riyod" kitobida ibn Hishomning "at-Tazkira"sidan iqtibos keltirgan.

7. "at-Tahsil vat tafsil likitabit tazyil vat takmiyl". Ushbu kitob ham bir necha juzdan iboratdir.

8. "Al-jomeus sog'iyr". U haqida Imom Suyutiy o'z fikrlarini bildirganlar. Ushbu kitobni Parij kutubxonasidan topish mumkin.

9. "Al-jomeul kabir". Buni ham Suyutiy zikr qilganlar.

10. "Sharhul burda". Ushbu kitob Ka'b ibn Zuhayrning "Al-burda" asariga ibn Hishom al-Ansoriy tomonidan yozilgan sharhdir. "Al-burda" kitobining asl nomi "Bant suad" dir. U ellik to'qqiz bayttan iborat bo'lgan. Kitobda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam madh etilgan va u kishidan kechirim so'raglan.

⁹ «Bug'yatul vuot». B. 2/69.

11. "Sharhu qotrin nada va ballis soda". Bu muallif o'zining "Qotrun nada va ballus soda" asaridagi murakkab lafzlarni sharh etib yozgan asaridir. Ushbu asar ham bir necha marotaba nash etilgan bo'lib, uning ham eng mashhur tahqiqi Muhammad Muhiyyiddin Abdulhamid tomonidan qilingan va nashr etilgan. Ushbu kitob nahviy boblarning bayon etilishiga ko'ra "Shuzuruz zahab" kitobiga o'xshash bo'lsa-da, unga qaraganda qisqaroq, hamda o'rta bosqich talaba va o'qituvchilari uchun mosroq uslubda bitilgandir. U kalima haqidagi mavzu bilan boshlanib, vasliy hamza mavzusi bilan yakunlanadi.

"Qotrun nada va ballus soda" asariga yana bir nechta sharhlar yozilgan. Masalan, Fokihiy¹⁰ning "Mujiybun nida ila sharhi qotrin nada" asari, hamda, Xotib Shirbiniy¹¹ning "Mug'iysun nida" asaridir.

"Sharhu qotrin nada ba ballis soda" asariga bir nechta hoshiyalar ham bitilgan.

12. "Sharhul lamha li abi Hayyanil Andalusiy¹²".

13. "Mug'niy al-labib an kutubil a'ariyb". Ushbu kitob nahv borasidagi o'ziga xos, misli ko'rilmagan malumotlarga boy, muallifning eng mashhur kitoblaridandir. Ushbu kitobda, ibn Hishom nahviy masalalar bo'yicha o'z fikrlarini bildirib, ularga Qur'oniy va she'riy dalillarni ham keltirgan.

Kitobni bir qancha olimlar tahqiq qilganlar. Jumladan, Muhammad Muhiyyiddin Abdulhamid, Dr. Mazon Muborak va Ali Hamdulloh¹³, Dr. Abdullatif Muhammad Xotib¹⁴, Fahriddin Qubova kabi olimlar tahqiq qilgan. Hamda, Dr. Solih Abdulazim Shoir¹⁵ ham ushbu kitobni tadqiq qilgan.

Ushbu "Mug'niy al-labib an kutubil a'ariyb" asari Qohira va Tehron shaharlarida ko'p bor nashr etilgan.

14. "Risalatun fi intisobi "lug'otan" va "fadlan" va e'robi "xilafan" va "aydon" va "halumma jaron". Ushbu kitob "Darul kutubul misriyya" matbaasida hamda Berlin va Leydan¹⁶ kutubxonasida mavjud.

15. "Risalatun fi isti'malil munada fi tis'i aayatim minal Qur'an". Ushbu kitob ham London kutubxonasida mavjud.

16. "Rof'ul xososo an qiroatil xulaso". Suyutiy ushbu kitobni to'rt jildidan iborat ekanini ta'kidlagan.

17. "ar-Rovdotul adabiyya fi shavahidil ulumil arobiyya". Berlin kutubxonasida mavjud ushbu kitob Ibn Janiyning "Shavahidu kitabil luma" asariga yozilgan sharhdir.

18. "Sharhu shavahidis sug'ro". Uni ham Suyutiy zikr qilganlar. Bu kitob yuqoridagi "ar-Rovdotul adabiyya fi shavahidil ulumil arobiyya" kitobimi yoki boshqa alohida kitobmi ekani aniqlanmagan.

19. "Sharhu shavahidil kubro". Suyutiy zikr qilgan. Ammo aniqlanmagan.

20. "Sharhul qosidatil lug'ziyya fil masailin nahviyya". Leydan kutubxonasida mavjud.

21. "Umdatut tolib fi tahqiqi sorf ibnil Hajib". Uni Suyutiy ikki jildli kitob deb ta'lidlagan.

¹⁰ Fokihiy. Vafoti 972-hijriy sana.

¹¹ Xotib Shirbiniy. Vafoti 977-hijriy sana.

¹² Abu Hayyon: Alloma Muhammad ibn Yusuf ibn Aliy ibn Yusuf ibn Hayyon Asiruddin Abu Hayyon G'ornatiy Andalusiy Jiyoniy Nafziy. Hijriy 654-745-yillar.

¹³ Damashqdagi "Darul fikr" matbaasida chop etilgan.

¹⁴ Quvaytdagi arab merosi, adabiyoti, fani va madaniyati milliy majlisi.

¹⁵ Qohiradagi adabiyot maktabasida nashr etilgan.

¹⁶ Niderlandiyaning g'arbiy qismidagi shahar.

22. "Qovhush shuza fi mas'alati kaza". Abu Hayyoning "ash-Shuza fi mas'alati kaza" kitobiga yozilgan sharh.

23. "Qotrun nada va ballus-Soda". Juda ko'p marta nashr qilingan matn kitob.

24. "al-Qovaidus sug'ro". Suyutiy zikr qilgan.

25. "al-Qovaidul kubro". Ushbu asarni ham Suyutiy tilga olgan.

26. "Muxtasarul intisof minal kashshaf". Bu asar Zamaxshariy "al-Kashshof" tafsirlarida zikr qilgan mu'tazilalarning fikrlariga raddiyalar borasidagi Ibn Munayyirning "al-intisof minal kashshaf" kitobining muxtasaridir. Ushbu asar ham Berlin kutubxonasida mavjud.

27. "al-Masailis safiyro fin nahv". Bu asarni ham Suyutiy zikr qilganlar.

Ibn Hishom al-Ansoriy 761-hijriy sanada, milodiy 1360-yili 5-zul qa'da juma kechasi vafot etgan.

Ibn Hishom haqida Shayxul islom Alloma ibn Hajar al-Asqaloniy shunday degan: "Ibn Hishom nodir foidalari, daqiq bahslari, ajib xulosalari, to'liq tahqiqlari, yuqori darajali bilimi, hamda, kamtarligi, yaxshiliksevar ekani, rahm-shafqatli, xush xulqli va yumshoq qalbli ekani bilan ajralib turar edi".

Xulosa qilib aytiladigan bo'lsa, ushbu maqolada ibn Hishom al-Ansoriyning arab tilshunosligiga qo'shgan hissasi misli ko'rilmagan darajada ulkan ekanini his qilish mumkin. u yozgan asarlari, unda bayon etgan fikr va qarashlari boshqa ko'plab nahv ulamolarini ham hayratga solgan. Ibn Xoldun aytganidek ibn Hishom nahvda Sibavayh bilan bir maqomdadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sabiylul huda bitahqiqi "Sharhi Qotrin nada". Alloma Muhammad Muhiyyiddin Abdulhamid. Dorud daqqoq, 2020.

2. Звегинцев В. А. История арабского языкознания. М., 1958

3. الأ نصاري هشام بن الدين جمال للامام "الصدى وبل الندى قطر شرح"

1. <https://hozir.org/umumiy-tilshunoslik>

2. <https://wikipedia>.